


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARAQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI

Ro'yhatga olindi:  
№ BD-Bakalavr  
2022 yil  
“26” 08



O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI  
FAN DASTURI

Fan/modul kodi <b>O'YTV3004</b>	O'quv yili 2022- 2023	Semestr 1 yoki 2	ECTS – Kreditlar 2
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek	<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4
1.	<b>Fan nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lif (soat)</b>
	<b>O'zbekistonning eng yangi tarixi</b>	30	30
2.			<b>Annotasiya</b>
<p>O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng tarixga, tarixiy-madaniy merosimizga munosabat o'zgardi. Har bir xalqning kimligini bilish uchun uning tarixini, madaniyatini, tom ma'noda bosib o'tgan yo'llini bilishimiz kerak. Shunday ekan, o'zbek xalqi o'zining 3000 yillik tarixi davrida ko'plab o'zgarishlarga duch keldi. Shu nuqtai nazardan olganda, 130 yil davom etgan mustamlakachilik davrida yaratilgan adabiyotlar mafkura xizmatida bo'lgan.</p> <p>Mustaqillik tariximizni, milliy va madaniy merosimizni, o'zligimizni tiklashga xizmat qildi. Mustaqillik yillarda milliy, ma'naviy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va tashqi siyosat sohasida ko'plab o'zgarishlar yuz berdi. Umuman olganda, bu davrda, O'zbekiston Respublikasining zamonaviy davlatchiligi yuzaga keldi va tashqi siyosatda dunyoning yetakchi davlatlari bilan tashqi siyosiy, diplomatik va iqtisodiy aloqalar o'rnatildi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatida muhim o'ziga xos o'mi yuzaga keldi. Bu shubhasiz, davlatchiligimiz yangi pog'onaga olib chiqdi. Mana shu jihatlarni hisobga olib, "O'zbekistonning eng yangi tarixi" alohida fan sifatida oliy o'quv yurtlarida o'rganilishi kerak. Fan muhim siyosiy, milliy va umuminsoniy xususiyatlarga ega.</p> <p>O'quv dasturlari ta'lif tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nkmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lif muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturining muhim belgisidir. Chunki ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ta'lif amaliyotida O'quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturida ta'lifning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada</p>			

takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturilarida o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketmeket joylashtiriladi.

Ta'limning O'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi

Dastur "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unga mazkur yo'nalish xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dasturda "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanning mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak tarixchi va tarix fani o'qituvchisi kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarini o'z ichiga qamrab olgan.

*Fanni o'qitishning maqsadi* – mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasida yuz bergen muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatish va jamiyat hayotida talabaning o'rnnini, o'zligini anglatishdan iborat.

*Fanni o'qitishning vazifalari* – mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni hamda mustaqillik yillarda davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hamda boshqa sohalardagi islohotlarning mazmun-mohiyatini talabalarga tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda milliy g'ururni shakllantirishdan iborat.

## **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **1-mavzu. Kirish. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati. (2 soat)**

Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. O'zlikni anglashga intilishning kuchayishi. Siyosiy tizimdagи o'zgarishlar. Mustaqillikning e'lon qilinishi. O'zbekiston Respublikasining tashkil etilishi. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo'lidiagi sa'y-harakatlar. Mustaqil O'zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida I.Karimovning tarixiy xizmatlari.

#### **2-mavzu. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish . (2 soat)**

Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va

uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlari. O'zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o'zgarishlar. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik. O'z-o'zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o'rni. O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. Inson haq-huquqlarini ta'minlash va himoya qilish.

### **3-mavzu. O'zbekistonda siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi. (2 soat)**

O'zbekistonda hokimiyatning bo'linishi tamoyili. Hokimiyatning uch bo'g'ini. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Mustaqil O'zbekiston siyosiy partiyalari faoliyatining xususiyatlari. O'zbekiston parlament tizimi va undagi islohotlar. O'zbekistonda ikki palatali parlamentning shakllanishi. O'zbekiston huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlaridagi islohotlar. Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston davlat hokimiyatining muhim bo'g'ini. Mahalliy hokimiyat organlari va ulardagi o'zgarishlar

### **4-mavzu. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkning shakllanishi.**

#### **O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi. (2 soat)**

Iqtisodiyotni modernizasiya qilish konsepsiysi. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari. Bozor munosabatlariga o'tishning huquqiy asoslarining yaratilishi. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilini amalga oshirilish mexanizmi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo'jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo'nalishlari. Sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi. Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish. Jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelish sabablari, oqibatlari va uni O'zbekistonda bartaraf etish yo'llari. Mamlakat iqtisodiyotining modernizasiya va diversifikasiya qilinishi, bank-moliya tizimini mustahkamlash borasidagi chora-tadbirlar. Soliq tizimidagi islohotlar.

### **5-mavzu. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy o'zgarishlar. (2 soat)**

Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi. Manzilli ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotinqizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, aholini uy-joylar bilan ta'minlash, yo'l-transport muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya va manzilli ijtimoiy

yordamni amalga oshirishdagi ishtiroti.

O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

#### **6-Мавзу. Mustaqillik yillarida respublikaning ma'naviy va madaniy rivojlanishi. Таълим тизимидағи ислохотлар. (2 soat)**

Mustaqillik yillarida ma'naviy va ma'rifiy hayot. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkuraviy masalalar. Milliy urf-odatlari, qadriyatlar va an'analarning qayta tiklanishi.

Mustaqillik yillarida buyuk ajodolar va tarixiy shaxslarga bo'lgan e'tibor. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ajodolar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi xizmati. Tarixiy shaharlar (Buxoro, Samarkand, Marg'ilon, Qarshi, Toshkent, Xiva, Shahrisabz) yubileylarining xalqaro miqyosda keng nishonlanishi. Toshkent shahrining "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi va uning ahamiyati. Madaniyat va san'at sohasining rivojlanishi. Xalqaro ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi. Milliy sport turlarining rivojlantirilishi. Beshta tashabbus va uning yuksak ma'naviy madaniyatni ta'minlashdagi o'rni. O'zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta'minlash borasidagi davlat siyosati.

#### **7-mavzu: Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi. (2soat)**

Mustaqillik yillarida Qoraqalpoqiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotidagi islohotlar. Qishloq xo'jaligi sohasidagi o'zgarishlar. Ma'naviy va madaniy hayotdagi yangilanishlar. Qoraqalpoqiston oliv ta'limi tizimidagi islohotlar. Qoraqalpoq Respublikasida ekologik vaziyat. Orol fojiasi. Qoraqalpoqiston Respublikasi ekologik vaziyatini yaxshilashga qaratilgan davlat siyosati.

#### **8-mavzu. O'zbekiston va jahon hamjamiyati. (2 soat)**

O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo'lga qo'yilishi. O'zbekiston Respublikasining BMTga a'zo bo'lishi va jahon hamjamiyatidagi o'ziga xos o'rni. O'zbekistonning MDHdagi o'rni va mavqyeining oshib borishi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari. Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiysi. O'zbekiston tashqi siyosatida Rossiya, AQSh, Xitoy mamlakatlarining o'rni.

O'zbekistonning geosiyosiy va geoijtisodiy o'rni. O'zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida olib borgan siyosati.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O'zbekiston Respublikasining faolligi. O'zbekistonning ShHT bilan aloqlari. O'zbekistonning Markaziy Osiyo, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari bilan yangi strategik sherikchilik shartnomalarining imzolanishi. O'zbekiston Respublikasining faol tashqi siyosatining yangi bosqichi. O'zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida olib borgan siyosati. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'naliishlar.

#### **9-mavzu. Yangilangan O'zbekiston: milliy qayta qurishdan milliy taraqqiyotgacha. (2 soat)**

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi, hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi va unda belgilangan ustuvor yo'naliishlar:

- Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'naliishlari;
- Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'naliishlari;
- Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'naliishlari;
- Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari;
- Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'naliishlar.

#### **III. Seminar (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'zbekiston mustaqillikka erishishi arafasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. **2-soat**
2. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirish va siyosiy islohotlarni amalga oshirish. **2-soat**
3. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkning shakllanishi. O'zbekistonda bozor munosabatlarning rivojlanishi. **2-soat**
4. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy o'zgarishlar. **2-soat**
5. O'zbekiston va jahon hamjamiyati. **2-soat**
6. Yangilangan O'zbekiston: milliy qayta qurishdan milliy taraqqiyotgacha. **2-soat**

#### IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

№	Mustaqil ish mavzulari	Manbalar
1.	Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati	1. Новейшая история Узбекистана. Учебник (пред проф М.А Рахимов. Т : 2018 – 37-49 стр) 2. Мустакил Ўзбекистан тарихининг дастлабки саҳифалари. - Тошкент, 2000. 31-49 б. 3. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. - Тошкент: Маънавият, 2011. 56-74 б. 4. Мустакил Ўзбекистон тарихи. Масъул мухаррим А.Сабиров. - Тошкент: Академия, 2013. 11-31 б.
2.	Demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining vujudga keltirilishi, O'zbekistondagi siyosiy islohotlar.	1.Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараккиёт Стратегияси.. Т.2022.Ўзбекистон. 2. Новейшая история Узбекистана. Учебник (пред проф М.А Рахимов. Т : 2018 – 117-119 стр)
3.	Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkning shakllanishi. O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.	1.Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёвнинг Олий Олий Мажлиси Мурожаатномаси 19 январ 2021 <a href="http://www.uzbekistonmt.uz">www.uzbekistonmt.uz</a> ; 2. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараккиёт Стратегияси.. Т.2022.Ўзбекистон. 3.Новейшая история Узбекистана. Учебник (пред проф М.А Рахимов. Т : 2018 – 147-167 стр).
4.	O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy o'zgarishlar.	1. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараккиёт Стратегияси.. Т.2022.Ўзбекистон. 2. Мустакил Ўзбекистон тарихи. Масъул мухаррим А.Сабиров. - Тошкент: Академия, 2013. 11-31 б. 3. Новейшая история Узбекистана. Учебник (пред проф М.А Рахимов. Т : 2018 – 189-225 стр).
5.	Qoraqalpoqiston mustaqillik yillarda.	1.Қорақалпоғистон тарихи (1917-1994 й.). - Нукус, 1995. 5-67 б. 2. Қорақалпоғистон Республикасини ижтимоий иқтисодий ривожлантириш стратегияси. Тошкент 2013. 252-300 б.
6.	O'zbekiston va jahon hamjamiyati.	1. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараккиёт Стратегияси.. Т.2022.Ўзбекистон 2. Зойир И. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамjamияти: халқаро муносабатлар ва ташкии алоқаларнинг ташкил килиш. Тошкент. 2008. 600-701 б. 3. Новейшая история Узбекистана. Учебник (пред проф М.А Рахимов. Т : 2018 – 377-455 стр).
7.	Yangi O'zbekiston: Milliy tiklanishdan milliy taraqqiyot sari	1.2021-2026. Йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараккиёт Стратегияси хақида.. Т.2022.Ўзбекистон – lex.uz

		2. III. Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараккиёт Стратегияси.. Т., 2022.	
		1.	
3.	<b>V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b> <b>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</b>		
	<ul style="list-style-type: none"> <li>• mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni, ularning sabablari va oqibatlarini;</li> <li>• mustaqillik yillardagi o‘zgarishlarni, O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalarini, zamonaviy jarayonlarda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o‘mini tarixiylik va xolislik nuqtai nazaridan <i>bilishi</i> kerak;</li> <li>• O‘zbekistonning eng yangi tarixi muammolarini o‘rganish, dunyoqarashni mustahkamlashda milliy mustaqillik g‘oyasini qo’llay bilish, atrofida sodir bo’layotgan jarayonlarga o’z munosabatini bildira olish, jamiyat va inson dunyoqarashi rivojida tarix fanining o‘rnini anglash va bugungi kunda sodir bo’layotgan voqyealarning tarixdagi muhim voqyealar bilan bog’liqligini bilish <i>ko’nikmalariga ega bo’lishi</i> kerak.</li> <li>• O‘zbekistonning eng yangi tarixini chuqur bilish, ma’naviy-milliy va umuminsoniy masalalar bo'yicha o’z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilish, milliy mustaqillik g‘oyalariga amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarash kabi <i>malakalarga ega bo’lishi</i> kerak.</li> </ul>		
4.	<b>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b>		
	<ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• munozara,</li> <li>• o’z-o’zini nazorat.</li> <li>• “Aqliy hujum”,</li> <li>• “Muammo”;</li> </ul>		
5.	<b>VII. Kreditni olish uchun talablar:</b> Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshirqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish		
6.	<b>Rahbariy adabiyotlar:</b>		
	<ol style="list-style-type: none"> <li>1.Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston.. 2017.</li> <li>2.Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.</li> <li>3.Mirziyoev Sh.M. Biz buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birgalikda quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017 yil.</li> <li>4.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini himoya qilish mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. Toshkent: O‘zbekiston. 2017 yil.</li> </ol>		

5. Mirziyoev Sh.M. Birgalikda biz erkin va obod, demokratik O'zbekiston davlatini barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017 yil.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2019 йил.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2021 йил.
8. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараккиёт стратегияси.. Т., 2022.
9. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиклол, иқтисод, сиёsat, мафкура. Т. 1. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
10. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфизилигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва катъий иродамизга боғлик. Т. 12. - Тошкент: Ўзбекистон, 2004.
11. Каримов И.А. Инсон унинг ҳукуқ ва эркинликлари - олий қадрият. Т. 14. - Тошкент: Ўзбекистон, 2006.
12. Каримов И.А. Юксак манавият-енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008.
13. Каримов И.А. Демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқоролик жамиятини шакллантириш-мамлакатимиз тараккиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
14. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
15. Каримов И.А. Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажагимиз гаровидир. Халқ сўзи. 2012, 10 май.
16. Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат килиш – энг олий саодатдир. - Тошкент: Ўзбекистон. 2015.

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Мустакил Ўзбекистан тарихининг дастлабки сахифалари. - Тошкент, 2000.
2. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. - Тошкент: Маънавият, 2011.
3. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. - Тошкент: Шарқ, 2006.
4. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент: Маънавият, 2017.
5. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабиров. - Тошкент: Академия, 2013.
6. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Азизхўжаев А.А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, қувончлар. - Тошкент: 2001.

2. Азизхўжаев А.А. Чин ўзбек иши. - Тошкент, 2003.
3. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. - Тошкент: Абу Али ибн Сино нашриёти, 2002.
4. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараккиёт сари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2005.
5. Левитин Л. Ўзбекистон туб бурилиш палласида. - Тошкент: Ўзбекистон, 2005.
6. Усмонов К. Ўзбекистоннинг жаҳон хамжамиятига интеграциялашуви. - Тошкент: Молия, 2003.
7. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
8. Ўзбекистон тарихи. Р.Ҳ.Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. - Тошкент, 2005.
9. Ўзбекистон халқининг дини, маданияти ва урф-одатлари: тарих ва хозирги ҳолат. - Тошкент: ТИУ, 2011.
10. Ўлмасов А., Вахобов А. Иқтисодиёт назарияси. - Тошкент: Шарқ, 2006.
11. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик: тарихий тажриба ва хозирги замон. Масъул мухаррир Р.Ҳ.Муртазаева. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
12. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). 2 том. Масъул мухаррирлар: Р.Абдуллаев, К.Ражабов, М.Рахимов. - Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
13. Муртазаева Р.Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2019.
14. Юнусова Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). - Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2009.
15. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар (70-80-йиллар мисолида). Кўлланма. - Тошкент: Шарқ, 1999.
16. Қорақалпогистон тарихи (1917-1994 йй.). - Нукус, 1995.
17. Фуломов С., Убайдуллаева Р., Ахмедов Э. Ўзбекистон. -Тошкент: Мехнат, 2001.

**Axborot manbalari (saytlar):**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz).
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

7. Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2021 yil 24-avgustdaggi 1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan.

8. **Fan/modul uchun mas’ullar:**  
**Normurodova G.B.** – SamDU, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasи mudiri, tarix fanlari doktori.  
**Nasrullahov M.I.** – SamDU, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasи dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

	Xoliqulov R.Sh.- SamDU, "O'zbekiston tarixi" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi.
9.	<p style="text-align: center;"><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>Xoliqulov R.Sh.- SamDU, "O'zbekiston tarixi" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi (ichki)</p> <p>Murtazayeva R.H. – O'zMU Tarix fakulteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasi professori, tarix fanlari doktori. (tashqi)</p>

Kafedra mudiri:


dots. Normurodova G.B

Fakultet dekani:

prof. Djuraqulova D.M

SamDU o'quv ishlari  
bo'yicha prorektor:

prof. Soleev A.S



Mutaxassislik fanlari bo'yicha fan dastur sillabuslarni xorij tajribasini  
o'rgangan holda transformatsiya qilish **bo'yicha ishchi guruh:**

Rais:

M.Muqimov

A'zo:

L.Ungalov

### "Kelishilgan"

SamDU o'quv uslubiy boshqarma  
boshlig'i:

Sh.Muranov /

“ ” 2022 yil

M.O‘.